



БУХОРО ДАВЛАТ ТИББИЁТ
ИНСТИТУТИ



ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

2 ЖИЛД, 4/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 2, НОМЕР 4/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 2, ISSUE 4/1



ТОШКЕНТ-2025

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrasida professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida dotsenti, DSc
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinolaringologiya kafedrasida professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadulloeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.K. Temirova** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Nevrologiya va bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika kafedrasida assistenti PhD

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrasida professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasida professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **G.S. Xodjiyeva** - Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida dotsenti

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан № С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114, г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacad>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva U.K., Rakhimova M.B. Ulcerative colitis: risk factors.....	6
2. Ibrohimov S.I. Bolalik yoshida kuzatiladigan eksudativ o‘rta otit rivojlanishining asosiy sabablari.....	10
3. Jahonqulova S.O., Po‘latova Sh.H. Eksperimental bosh miya travmasida morfologik o‘zgarishlar va ularning intensiv terapiya samaradorligiga ta’siri.....	20
4. Kayumova G.M. Clinical and morphological features of tubal pregnancy.....	30
5. Madjidova Y.N., Isakova G.S., Sharipov F.R. Evaluation of the effectiveness of a mechanical rehabilitation glove in school-aged patients with cerebral palsy in the Andijan region.....	36
6. Maxamatov U.Sh. Maktab muassasalarining ta’lim va tarbiya sharoitlarini gigiyenik jihatdan asoslash va takomillashtirish (Farg‘ona viloyati misolida).....	43
7. Nabirayeva B.A. Temporomadibular bo‘g‘im disfunktsiyasida qisman adentiali bemorlarda teri orqali neyrostimulyatsiyani qo‘llash.....	49
8. Nazarov B.B., Karimova N.N. Description of the results of a comparative study of immunoglobulin content in the serum of women with pre-cervical tumor.....	54
9. Rasulov A.S., Rasulova N.A. The use of an immunostimulator to assess the quality of immunological status in children.....	60
10. Rasulova N.A., Rasulov A.S. Strategies for providing vitamin D based on blood biochemical indicators in rachitis.....	65
11. Абдуллаева Ф.О. Туберкулёз лёгких и сопутствующие патологии – проблемы коморбидности, патогенеза и ведения пациентов.....	69
12. Абдулхакимов Ш.А. Технические принципы и особенности выполнения КТ-исследований у больных с врождёнными аномалиями сердца	73
13. Абдулхаков И.У., Абдулхаков М.И. Современные представления о нейрогенезе у человека.....	85
14. Абдурахмонов И.И., Умаров Б.Я. Иммунологические детерминанты риска развития послеоперационного энтероколита при болезни Гиршпрунга у детей.....	90
15. Абрайкулов И.Р., Муротов Н.Ф. Бачадон бўйни саратони таъхисланган аёллар қон зардобда интерферон гамманинг микдорий параметрлари қиёсий тавсифи.....	96
16. Акилов Х.А., Примов Ф.Ш., Напасов С.С., Сапаев Д.Ш. Клинико-эпидемиологические особенности посттравматического панкреатита у детей.....	104

17. Акрамов О.З., Аблязов О.В, Кадыров Ш.У.	
Оптимизация нейровизуализации и хирургических доступов при опухолях функционально значимых зон головного мозга у детей.....	113
18. Алиджанова Д.А.	
Нейроспецифические белки как маркеры когнитивного дефицита у детей и подростков, страдающих СД 1-типа.....	119
19. Алиханова Н.М., Исамухамедова И.С., Аббосхужаева Л.С.	
Вариабельность глюкозы у больных сахарным диабетом 2 типа в зависимости от гликемической нагрузки и гликемического индекса ингредиентов продуктов питания.....	128
20. Аскарров Ш.Ш., Салахитдинов Ш.Н.	
Интервенционные стратегии реперфузии при массивном тромбозе коронарных артерий: клиничко-ангиографическое сравнение трёх методов.....	135
21. Ахмеджанова С.Ф.	
Функциональная гипоталамическая аменорея: современные представления о патогенезе, диагностике и терапии.....	142
22. Байрамов С.Д., Султанов С.Н.	
Роль недифференцированной дисплазии соединительной ткани в развитии истмико-цервикальной недостаточности и преждевременных родов.....	146
23. Бахронов Б.Б.	
Морфологические и морфометрические критерии синергетического действия <i>Silybum marianum</i> и <i>Carthamus tinctorius</i> при хроническом поражении пищевода угарным газом.....	151
24. Бердиева Х.У.	
Особенности интерпритации показателей интерлейкинов при когнитивных расстройствах у детей с задержкой речевого развития.....	159
25. Ганжиев Ф.Х., Хамдамов Б.З.	
Травматические повреждения печени: эпидемиология, клиничко-патологические последствия (обзорный взгляд).....	165
26. Джурабекова С.Т., Бойбекова А.Ф.	
Оптимизация послеабортной реабилитации после прерывания беременности в ранних сроках с применением кок с фолатами по схеме "Quick start": гормональный и репродуктивный эффект.....	171
27. Досмухамедова Л.В., Эргашев Б.Б.	
Лечение детей с венозными мальформациями нижних конечностей.....	184
28. Ибрагимов А.У., Хомидов Ф.К.	
Повышение эффективности профилактики хронических респираторных заболеваний среди взрослого населения на основе комплексных и персонализированных мероприятий.....	190
29. Ахмедова Дилдорахон Садиллахужаевна	
Клиничко-неврологические признаки вторичных энцефалитов у детей.....	197
30. Khushvakova Nilufar Zhurakulovna, Xamidova Farida Mo'minovna, Bo'riyeva Dilnoz Vaxriddinovna	
Chronic hypertrophic laryngitis leukokeratosis and leukoplakia.....	201




UDK 613.2:613.95

Махаматов Умиджон Шойржонович

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston

ORCID: 0000-0003-4567-8910

**МАКТАБ МУАССАСАЛАРИНИНГ ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ ШАРОИТЛАРИНИ
ГИГИЙЕНИК ЈИНАТДАН АСОСЛАШ ВА ТАКОМИЛЛАСHTIRISH (FARG'ONA
VILOYATI MISOLIDA)** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18207911>**ANNOTATSIYA**

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida Farg'ona viloyati maktab muassasalarining ta'lim va tarbiya jarayonlarini gigiyenik jihatdan baholash, mavjud sanitariya-gigiyena sharoitlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilar salomatligini saqlash, o'quv-bilish faolligini oshirish hamda ta'lim muassasalarida sog'lom gigiyenik muhitni yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Ishda o'quv binolari va sinf xonalarining mikroiklim ko'rsatkichlari, yoritilish, shamollatish, suv ta'minoti, gigiyenik me'yorlarga muvofiqlik darajasi hamda o'quvchilar sog'lig'iga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Olingan natijalar asosida Farg'ona viloyatidagi maktablarning sanitariya-gigiyenik holatini yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, sog'lom muhit yaratish va o'quvchilarda gigiyena madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim gigiyenasi, sanitariya-gigiyena sharoitlari, o'quv muassasalari, sog'lom muhit, o'quvchilarning salomatligi, Farg'ona viloyati, mikroiklim, shamollatish tizimi, yoritish me'yorlari, gigiyenik baholash.

Махаматов Умиджон Шойржонович

Ферганский институт общественного здравоохранения, Фергана, Узбекистан

**ГИГИЕНИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УСЛОВИЙ
ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ
ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)****АННОТАЦИЯ**

В данном научном исследовании рассматриваются вопросы гигиенической оценки образовательного и воспитательного процессов в школьных учреждениях Ферганской области, анализ существующих санитарно-гигиенических условий и определение путей их совершенствования. Основная цель исследования заключается в разработке научных основ создания здоровой гигиенической среды в образовательных учреждениях, сохранения здоровья учащихся и повышения их учебно-познавательной активности. В работе изучены показатели микроклимата учебных зданий и классов, освещенность, вентиляция, водоснабжение, уровень соответствия санитарно-гигиеническим нормам, а также факторы,

влияющие на здоровье учащихся. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по улучшению санитарно-гигиенического состояния школ Ферганской области. Результаты исследования способствуют модернизации материально-технической базы образовательных учреждений, созданию здоровой среды и формированию у учащихся культуры гигиены.

Ключевые слова: гигиена образования, санитарно-гигиенические условия, образовательные учреждения, здоровая среда, здоровье учащихся, Ферганская область, микроклимат, система вентиляции, нормы освещения, гигиеническая оценка.

Maxamatov Umidjon Shoirjonovich

Fergana medical institute of public health, Fergana, Uzbekistan

HYGIENIC JUSTIFICATION AND IMPROVEMENT OF EDUCATIONAL AND TRAINING CONDITIONS IN SCHOOL INSTITUTIONS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION)

ABSTRACT

This scientific research examines the hygienic assessment of educational and training processes in school institutions of the Fergana region, analyzes the existing sanitary and hygienic conditions, and identifies ways to improve them. The main goal of the study is to develop scientific foundations for creating a healthy hygienic environment in educational institutions, preserving students' health, and enhancing their educational and cognitive activity. The research investigates microclimate indicators of school buildings and classrooms, lighting, ventilation, water supply, compliance with hygienic standards, and factors affecting students' health. Based on the obtained results, practical recommendations have been developed to improve the sanitary and hygienic state of schools in the Fergana region. The findings contribute to the modernization of the material and technical base of educational institutions, the creation of a healthy environment, and the formation of hygiene culture among students.

Keywords: educational hygiene, sanitary-hygienic conditions, educational institutions, healthy environment, students' health, Fergana region, microclimate, ventilation system, lighting standards, hygienic assessment.

Kirish. Maktab muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini gigiyenik jihatdan takomillashtirish hozirgi davrda o'ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning salomatligi, jismoniy rivojlanishi va psixofiziologik holati ko'p jihatdan ularning ta'lim muhitiga, xususan, sanitariya-gigiyenik sharoitlarga bog'liq. Shu boisdan maktab binolari, sinf xonalari, laboratoriyalar, sport zallari hamda yordamchi inshootlarning gigiyenik me'yorlarga muvofiqligi ta'lim sifati va o'quvchilarning sog'lom hayot tarzini shakllantirishda muhim omil sanaladi.

Shuningdek, Farg'ona viloyati sharoitida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalarida gigiyenik talablar qisman bajarilgan bo'lsa-da, ayrim maktablarda yoritish darajasining pastligi, shamollatish tizimining eskirganligi, ichimlik suv manbalarining yetarli darajada tozalangan emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. O'quv binolarining mikroiqlimi ya'ni havo harorati, namlik, havoning aylanish tezligi o'quvchilarning ish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Optimal mikroiqlim me'yorlariga rioya qilinmagan hollarda bolalarda charchash, diqqatning pasayishi va surunkali kasalliklar xavfi ortadi.

Shu bilan birga, maktab muassasalarida o'quv jarayonini gigiyenik asosda tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kompleks yondashuv zarur:

- binolarning arxitektura-rejalashtirish yechimlari sanitariya talablariga javob berishi lozim;
- yoritish tizimlari tabiiy va sun'iy manbalar hisobiga optimal darajada bo'lishi kerak;
- shamollatish va isitish tizimlari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda sozlanishi zarur;

- sinf xonalaridagi partalar o'quvchilarning bo'y-basti va yoshi hisobga olingan holda ergonomik talablarga mos tanlanishi lozim;

- parta va mebellarning ranglari sokin, ko'zga yoqimli bo'lib, diqqatni jamlashni osonlashtiruvchi ohanglarda (masalan, och yashil, bej yoki och ko'k) bo'lishi maqsadga muvofiq.

Farg'ona viloyati iqlim sharoiti nisbatan iliq va nam bo'lganligi sababli, sinf xonalarida haroratni me'yorlashtirish, havoning aylanishini ta'minlash va namlik darajasini gigiyenik mezonlarga keltirish o'ta muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, maktablarda toza ichimlik suvi tizimining barqaror ishlashi, ovqatlanish bloklarining sanitariya holatini muntazam nazorat qilish, axlatni to'g'ri utilizatsiya qilish choralari ko'rish ham o'quvchilarning umumiy salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sharoitlariga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik me'yorlar (0341-16-sonli San Q va N)ga tegishli o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar kiritilgan. Mazkur me'yoriy hujjatning yangilangan talablari o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish jarayonining gigiyenik xavfsizligini va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Yangi talablarga muvofiq, 1-sinf o'quvchilari uchun darslar bir kunda 4 soatdan, haftaning ikki kunida esa 5 soatdan ortiq bo'lmasligi belgilangan. Shu bilan birga, 5 soatlik o'quv kunlari yengil fanlar jismoniy tarbiya, texnologiya, tasviriy san'at, musiqa madaniyati yoki tarbiya fanlari bilan to'ldiriladi. Umuman olganda, 1-sinf o'quvchilari uchun haftalik umumiy yuklama 22 soatdan oshmasligi lozim. 2-4-sinflar uchun darslar bir kunda 4 soatdan, haftaning to'rt kunida 5 soatdan ortiq bo'lmasligi belgilangan. 5 soatlik o'quv kunlarida, xuddi 1-sinflardagi kabi, yengil fanlar o'qitilishi tavsiya etiladi. 5-9-sinflar hamda 10-11-sinflar uchun esa o'quv yuklamasi bir kunda 6 soatdan oshmasligi kerakligi qayd etilgan. Ushbu cheklovlar o'quvchilarning intellektual va jismoniy salomatligini muhofaza etish, o'qish faoliyatida charchash va stress holatlarining oldini olish maqsadida belgilangan.

Bundan tashqari, ta'lim yili davomida o'quv haftalarining maksimal soni ham aniq belgilab berilgan: 1-sinflar uchun 33 hafta, 2-11-sinflar uchun esa 34 haftadan oshmasligi lozim. Bu talablar ta'lim jarayonini maqbullashtirish, o'quv yuklamasining gigiyenik me'yorlarga mosligini ta'minlash hamda o'quvchilarning sog'lom psixofiziologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mazkur o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi mutaxassislari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-metodik va tashkiliy tadbirlar asosida joriy etilmoqda. Ularning maqsadi, o'quv jarayonida sog'lom va xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirish, shuningdek, xalqaro ta'lim gigiyenasi standartlariga moslashtirilgan o'quv yuklamasi tizimini yaratishdan iborat.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnomalar va kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, Farg'ona viloyatidagi ayrim maktablarda o'quvchilarning 30 foizgacha qismi dars jarayonida charchoq, bosh og'rishi yoki diqqatning susayishi kabi alomatlarini his qilgan. Bu holat, asosan, sinf xonalaridagi havo almashinuvi pastligi va noto'g'ri yoritish bilan izohlanadi. Demak, o'quv muhitining gigiyenik sharoitlarini takomillashtirish bevosita o'quvchilarning fiziologik holatini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maktablar gigiyenasini baholashda psixogigiyenik omillar ham e'tiborga olinishi zarur. O'quvchilar uchun qulay, estetik jihatdan uyg'un, ranglar muvozanati saqlangan muhit ularning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xonadagi yorug'lik va rang uyg'unligi o'quvchilarning diqqatini jamlash, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy gigiyenik talablar ta'lim muassasalarida ekologik toza, energiya tejankor materiallardan foydalanishni, shamollatish tizimlarini avtomatik boshqaruvga o'tkazishni, ichimlik suvi va sanitariya inshootlarini markazlashgan nazorat tizimi orqali kuzatishni talab etadi. Shu maqsadda Farg'ona viloyati sharoitida maktablar uchun hududiy gigiyenik monitoring tizimini joriy etish taklif etiladi. Ushbu tizim gigiyenik xavf omillarini erta aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rishga imkon beradi.

Umuman olganda, Farg‘ona viloyati misolida maktab muassasalarining gigiyenik holatini o‘rganish natijalari ta‘lim tizimini sog‘lomlashtirish, o‘quvchilar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratish yo‘lida amaliy chora-tadbirlarni belgilashga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Gigiyenik jihatdan asoslangan ta‘lim muhiti nafaqat bolalarning sog‘lom rivojlanishini ta‘minlaydi, balki ularning ijtimoiy faolligi va ta‘limdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotning asosiy maqsadi Farg‘ona viloyatidagi umumta‘lim maktablarining ta‘lim va tarbiya sharoitlarini gigiyenik jihatdan baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. Shu maqsadda ilmiy ishda kompleks yondashuv asosida gigiyenik tahlil, empirik kuzatuv, laboratoriya o‘lchovlari va sotsiologik so‘rov usullari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot obyekti sifatida viloyatning turli tabiiy-iqlimiy sharoitga ega bo‘lgan shahar va qishloq hududlaridagi 30 ta umumta‘lim maktabi tanlab olindi. Tanlovda o‘quv binolarining joylashuvi, foydalanishga topshirilgan yili, texnik holati, o‘quvchilar soni hamda maktab infratuzilmasining gigiyenik talablar asosida jihozlanganlik darajasi hisobga olindi. Ushbu tanlov tadqiqot natijalarining hududiy o‘ziga xosliklarini aniqlash va umumlashtirish imkonini berdi.


Xususan, ma‘lumot yig‘ish jarayonida maktablarning asosiy o‘quv binolari, sinf xonalari, sport zallari, oshxonalar, sanitariya xonalari va suv ta‘minoti tizimi gigiyenik me‘yorlar asosida baholandi. Kuzatuvlar davomida o‘quv jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar ya‘ni, xonalar yoritilishi, shamollatish tizimining holati, havo harorati va namlik darajasi, suv sifati, mebel va o‘quv qurollarining gigiyenik mosligi aniqlanib, olingan ma‘lumotlar gigiyenik me‘yorlar bilan solishtirildi. Har bir maktabda o‘tkazilgan baholash natijalari asosida umumiy gigiyenik indeks shakllantirildi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda ota-onalar o‘rtasida maxsus so‘rovnomalarda o‘tkazilib, ularning gigiyenik madaniyat darajasi, maktab muhitidan qoniqish holati, sog‘lom turmush tarzi va sanitariya talablari haqidagi bilimlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida barcha etik tamoyillarga rioya qilindi. Ishtirokchilardan yozma rozilik olingan, shaxsiy ma‘lumotlar maxfiy saqlangan. Tadqiqotda ishtirok etganlar soni 1200 nafar o‘quvchi, 300 nafar o‘qituvchi va 250 nafar ota-onani tashkil etdi. Ularning ishtiroki natijalarni ijtimoiy jihatdan yanada haqqoniy qilishga yordam berdi. Barcha kuzatuvlar Farg‘ona viloyati Xalq ta‘limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda olib borildi. Ayrim texnik va tashkiliy cheklovlar ham mavjudligini hisobga olib, ayrim chekka qishloq maktablarida laborator tahlil imkoniyatlarining cheklanganligi, o‘lchov ishlarining asosan bahor va yoz oylarida amalga oshirilgani natijalarni yil davomida kuzatiladigan o‘zgarishlar bilan solishtirish imkoniyatini kamaytirdi. Shunga qaramay, olingan ma‘lumotlar Farg‘ona viloyatidagi maktablarning gigiyenik sharoitini tizimli baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ta‘lim muassasalarida sog‘lom gigiyenik muhitni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy asos yaratdi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari Farg‘ona viloyatidagi umumta‘lim maktablarining gigiyenik holatini baholashda bir qator muhim qonuniyatlarni aniqlashga imkon berdi. Eng avvalo, sinf xonalari va o‘quv binolarining texnik holati hamda ularning gigiyenik me‘yorlarga muvofiqligi turli darajada ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Shahar hududlaridagi maktablarda yoritish va shamollatish tizimlari nisbatan yaxshiroq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, qishloq joylardagi ta‘lim muassasalarida tabiiy yoritishning yetarli emasligi, havo almashinuvining sustligi va isitish tizimlarining eskirganligi kuzatildi. Ayrim maktablarda sinf xonalaridagi harorat 17-18°C darajasida bo‘lib, bu gigiyenik me‘yorlardan past ko‘rsatkich hisoblanadi. Bunday sharoit o‘quvchilarda charchash, diqqatning susayishi, shuningdek, surunkali shamollash kasalliklariga moyillikni oshirishi mumkin.

Yoritish darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan o‘lchovlarda maktablarning 40 foizida tabiiy yoritish yetarli bo‘lmagan, 30 foizida esa sun‘iy yoritish vositalari sanitariya me‘yorlariga mos kelmaganligi aniqlandi. Yoritish darajasining pastligi o‘quvchilarda ko‘rish organlariga zo‘riqish, tez charchash va diqqatni jamlay olmaslik holatlarini keltirib chiqargan. Shamollatish tizimlarining nosozligi esa sinf xonalarida karbonat angidrid (CO₂) miqdorining gigiyenik ruxsat etilgan chegaradan oshishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, 30 nafardan ortiq o‘quvchi tahsil oladigan sinflarda havo sifati pastligi


yaqqol sezilgan. Ichimlik suvi sifati tahlillari natijasida maktablarning 20 foizida suv tarkibidagi nitrat va qattqlik darajasi gigiyenik me'yorlardan oshganligi qayd etildi(1- diagramma). Bunday holat, ayniqsa, qishloq joylardagi mustaqil suv manbalariga ega bo'lgan maktablarda kuzatildi. Suv sifati past bo'lgan muassasalarda o'quvchilar orasida oshqozon-ichak kasalliklari va allergik reaksiyalar ko'rsatkichlari yuqoriligi aniqlangan. Ovqatlanish bloklarining holatini o'rganish natijasida esa ayrim maktablarda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoitlari gigiyenik talablarga to'liq javob bermasligi, oshxona jihozlarining eskiligi va sanitariya tozaligi bo'yicha yetarli nazorat yo'qligi aniqlandi.



1- diagramma. Umumta'lim maktablarida gigiyenik sharoitlarning yetarli emasligi sabablariga doir tahlil

Sotsiologik so'rovlar natijasida o'quvchilarning 58 foizi dars jarayonida tez charchash, 43 foizi esa sinf xonalarida havo og'irligini sezishlarini bildirgan. Ota-onalarning 65 foizi farzandlarining maktabdagi gigiyenik sharoitdan to'liq qoniqmasligini ta'kidlagan. O'qituvchilarning 70 foizi esa ta'lim sifati va o'quvchilarning faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil sifatida sinf muhitining gigiyenik darajasini qayd etgan. Bu holat o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda gigiyenik me'yorlarga amal qilish zarurligini ko'rsatadi.

Maktabdagi gigiyenik sharoitlar bo'yicha sotsiologik so'rov natijalari



2-jadval. Maktabdagi gigiyenik sharoitlar bo'yicha sotsiologik so'rov natijalari

Natijalar shuni ko'rsatadiki, maktab binolarining texnik holati, mikroiklim ko'rsatkichlari, yoritish va shamollatish tizimlarining sifat darajasi o'quvchilarning fiziologik holatiga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. O'quv muhitining gigiyenik sharoitlari past bo'lgan maktablarda bolalarning o'qishdagi faolligi, diqqatini jamlash va materialni o'zlashtirish ko'rsatkichlari past bo'lgani kuzatildi. Bu esa gigiyenik muhit va o'quvchilar salomatligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, gigiyenik muhitni yaxshilash nafaqat sog'lomlashtirishga, balki ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun maktablarda yoritish va shamollatish tizimlarini modernizatsiya qilish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, suv va sanitariya tizimlarini qayta qurish kabi chora-tadbirlar dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilarda gigiyena madaniyatini shakllantirish, ularda shaxsiy tozalik va sog'lom turmush ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalari tahlil qilinganida, maktab gigiyenasi holatini yaxshilash uchun quyidagi yo'nalishlar muhimligi aniqlandi, birinchidan, sanitariya-gigiyena me'yorlariga mos o'quv muhitini yaratish; ikkinchidan, maktab infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash; uchinchidan, o'qituvchilar, ota-onalar va sog'liqni saqlash tizimi vakillari hamkorligida gigiyenik madaniyatni oshirish dasturlarini ishlab chiqish. Shunday yondashuv o'quvchilarning sog'lom rivojlanishini ta'minlab, ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish lozimki, Farg'ona viloyatidagi umumta'lim maktablarida o'quvchilar uchun yaratilgan gigiyenik sharoitlar ularning sog'lig'i, ta'lim samaradorligi va tarbiyaviy jarayonga moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, ayrim maktablarda mikroiklim me'yorlariga rioya qilinmasligi, yoritish va shamollatish tizimlarining yetarlicha samarali ishlamasligi, suv va ovqatlanish joylarining gigiyenik holati pastligi kabi muammolar mavjud. Bunday omillar o'quvchilarda charchoq, diqqatning susayishi va turli sog'liq muammolarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Shu bois, maktab muhitini sog'lomlashtirish, sanitariya-gigiyena me'yorlariga to'liq mos sharoit yaratish, o'quvchilarda gigiyenik madaniyatni shakllantirish va bu borada pedagoglar hamda ota-onalar o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurdir. Maktab binolari va sinf xonalarini zamonaviy texnik talablarga moslashtirish, toza ichimlik suvi tizimini ishonchli nazorat ostida saqlash, ovqatlanish joylarining tozaligini ta'minlash hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi ta'limiy faoliyatni kuchaytirish orqali o'quvchilarning jismoniy va psixologik holatini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ataniyazova R., Negmatov J., Parpiev Z. "A Cost-Benefit Analysis of Early Childhood Hygiene Interventions in Uzbekistan." Eurasian Journal of Business and Economics, 2014, Vol.7 (14), pp.183-208.
2. Shayxova, G. I. Ovqatlanish gigiyenasi. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2021. – 434 b
3. Ashurova M. D. Bolalar "Mehribonlik" uylari sharoitini gigiyenik baholash uslubiyotini takomillashtirish. Dissertatsiya. – Toshkent: Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2018. – 116 b. – Shifr: Дис-2019/9-361.
4. Usmanovich N.A. "Hygiene and Health Education in the USSR 1930-1941." PCISJRF (Proceedings of Conference on International Studies & Journal of Research Findings), 2025.
5. Moon J., Choi J. W., Kim K. H. "Regional Disparities in Safe and Clean Environments in Uzbekistan: Analysis of 2021-2022 Uzbekistan Multiple Indicator Cluster Survey Data." Sustainability, 2024, 16(4):1580.
6. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi. "San Q va M 0341-16: Umumta'lim maktablari uchun sanitariya-epidemiologik me'yor va talablar". – Toshkent, 2016
7. UNICEF. "For every child, adequate water, sanitation and hygiene conditions." Story Uzbekistan, 2024 Sept.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году
Бухарским государственным
медицинским институтом
Выходит один раз в 3 месяца
Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт